




O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Statistika va tadqiqotlar departamenti
U. Hamidjonov, N. Avazov

Iqtisodiy faollik darajasi va iqtisodiy kutilmalar (tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari)

Toshkent 2025

Iqtisodiy faollik darajasi va iqtisodiy kutilmalar (tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari)

Ushbu maqoladagi qarashlar mualliflarning shaxsiy fikr va mulohazalari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy pozitsiyasi bilan mos tushmasligi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki maqola mazmuni uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi. Taqdim qilingan materiallarni har qanday uslubda qayta ishlatish faqatgina mualliflar ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Statistika va tadqiqotlar departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: n.avazov@cbu.uz

Iqtisodiy faollik darajasi va iqtisodiy kutilmalar (tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari)


2025 yil iyun oyi yakuni bo'yicha respublika miqyosida 664 ta tadbirkorlik subyektlari (*yuridik shaxslar*) ishtirokida iqtisodiy faollik darajasi va iqtisodiy kutilmalarni o'rganish bo'yicha so'rovnoma¹ o'tkazildi. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining **41,1** foizi **sanoat** tarmog'ida, **24,7** foizi **xizmatlar** sohasida, **20,2** foizi **savdoda** hamda **13,7** foizi qurilishda faoliyat yuritadi.

Sanoat tarmog'i

So'rovnomada **275** ta sanoat korxonasi ishtirok etdi. Unda ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlari korxonalar geografiyasidan kelib chiqqan holda hududlar kesimida proporsional ravishda tanlab olindi. Mazkur so'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalarining **21,5** foizi **To'qimachilik, tayyor kiyimlar** ishlab chiqarish, **19,3** foizi **Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki** ishlab chiqarish, **14,9** foizi **Qurilish materillari** ishlab chiqarish hamda qolganlari boshqa sanoat tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalar hisoblanadi.

1-rasm

So'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalaring sanoat tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



So'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalarining 52 foizi iyun oyida **ishlab chiqarish hajmi** o'zgarmaganini qayd etgan bo'lsa, 39 foizi oshganligini hamda qolgan qismi esa kamayganini ko'rsatgan.

¹ Mazkur so'rovnoma har oy yakuni bo'yicha doimiy ravishda o'tkazilib kelinadi.

Sanoat korxonalarining **eksport hajmi** tendensiyasida ham yuqoridagi holatni kuzatish mumkin. Ya'ni mazkur korxonalarning 66 foizi eksport hajmining o'zgarmaganligini, 25 foizi oshganligini va 9 foizi kamayganini ko'rsatgan.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida o'tkazilgan so'rovnomada respondent sanoat korxonalarining 59 foizi ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaganligini, 28 foizi oshganligini hamda 13 foizi kamayganligini ko'rsatgan. Mazkur korxonalarning eksport hajmi ham ishlab chiqarishga mos ravishda o'zgargan holda 21 foiz korxonada eksport hajmi oshgan, 11 foiz korxonada kamaygan hamda 68 foiz korxonada o'zgarmagan.

Sanoat korxonalarining 67 foizi o'zidagi **ish o'rinlari soni** o'zgarmaganini ko'rsatgan bo'lsa, 24 foizi oshganini 9 foizi esa kamayganini keltirgan. So'rovnoma o'tkazilgan davrda mazkur korxonalarning 64 foizida **ish haqi miqdori** o'zgarmagan bo'lsa, 32 foizida oshgan va 4 foizida pasaygan.

Ish haqi midorining oshganini ko'rsatgan tadbirkorlik subyektlarining 42 foizida ish haqi 6-10% miqdorda oshgan bo'lsa, 27 foizida 1-5% miqdorda, 25 foizida 11-15% miqdorda, 5 foizida 16-20% miqdorda hamda qolgan 1 foizida ish haqi 20% dan yuqori oshgan. Ish haqi kamayganini ko'rsatgan korxonalarning 33 foizida ish haqi miqdori 6-10% ga, 22 foizida 1-5% ga, 22 foizida 16-20% ga, 11 foizida 11-15% ga hamda qolgan 11 foizida 20% dan ko'proqqa kamaygan.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida o'zidagi ish o'rinlarini oshgani, kamaygani hamda o'zgarmaganini ko'rsatgan respondentlarning nisbati mos ravishda 21%, 8% va 71% ni tashkil qilgan. Shuningdek, ish haqi miqdorining o'zgarishi bo'yicha yuqoridagi nisbat mos ravishda 23%, 6% va 71% bo'lgan.

Iyun oyi mobaynida sanoat korxonalarining yarmidan ko'prog'ida (55%) **ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi** o'zgarmagan bo'lsa, so'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalarining 34 foizida oshgan hamda qolgan 11 foiz korxonada kamaygan.

Bunda ishtirok etgan sanoat korxonalarining 24 foizi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan 81-100% oralig'ida foydalanayotgan bo'lsa, 49 foizi 61-80% oraliqda hamda qolgan 27 foiz korxona 60% dan kam foydalanayotganini ko'rsatgan.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 27 foiz korxonada oshgan, 15 foiz korxonada kamaygan hamda qolgan 58 foiz korxonada o'zgarmagan.

Mazkur davrda ta'minotchilar tomonidan **xomashyo yetkazib berish muddatlari** so'rovnomada ishtirok etgan sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi o'zgarmaganini qayd etgan bo'lsa, 32 foizida mazkur muddat yaxshilangan hamda qolgan 8 foiz korxonada yomonlashgan.

So'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalarining 61 foizi may oyiga nisbatan iyun oyida **xomashyo narxlari** o'zgarmaganini, 34 foizi oshganini hamda 4 foizi pasayganini ko'rsatgan. Xomashyo narxlari oshganini qayd etgan tadbirkorlik subyektlarining 47 foizi narx oshishini 6-10% oraliqda, 41 foizi 1-5% oraliqda hamda 15 foizi 11-15% oraliqda va qolgan qismi narxlar 16-20% oraliqda oshganini belgilagan.

Narxlar pasayganini ko'rsatgan korxonalardan deyarli yarmi (44%) xomashyo narxlari 1-5% oraliqda pasayganini ko'rsatgan bo'lsa, qolgan korxonalar bu pasayishni 5 foizdan yuqori deb hisoblagan.

Ma'ulmot uchun: o'tgan yilning mos davrida ta'minotchilar tomonidan xomashyo yetkazib berish muddatlari yaxshilangan, yomonlashgan hamda o'zgarmagan sanoat korxonalari nisbati mos ravishda 25%, 8% va 67% ni tashkil qilgan. Shuningdek, bu davrda respondentlarning 28 foizi xomashyo narxlarining oshganini, 6 foizi pasayganini hamda 66 foizda o'zgarmaganligini qayd etgan.

So'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalarining 40 foizi **joriy moliyaviy holatini** yaxshi deb baholagan bo'lsa, 52 foizi qoniqarli hamda qolgan 8 foizi yomon ekanligini ko'rsatgan.

Bunga mutanosib ravishda mazkur korxonalarning 37 foizida **aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi** yaxshi holatda bo'lgan bo'lsa, 52 foizida qoniqarli hamda 11 foizida yomon holatda bo'lgan.

Ishlab chiqargan mahsulotlariga **talab darajasini** joriy holatda ishtirok etgan sanoat korxonalarining 73 foizi normal darajada ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, 8 foizida yuqori darajada hamda qolgan 19 foizida past darajada talab mavjud bo'lgan.

Shuningdek, iyun oyi holatiga **ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar zaxirasi** so'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalarining 82 foizida normal darajada bo'lgan bo'lsa, 8 foizida yuqori darajada hamda 9 foizida past darajada ekanligi qayd etildi.

Iyun oyi holatiga so'rovnomada qatnashgan sanoat korxonalarining 85 foizida **xarid qilingan xomashyo materiallari zaxirasi** normal darajada bo'lgan bo'lsa, 7 foizida yuqori darajada zaxira mavjud hamda qolgan qismida (8%) zaxira yetrali darajada bo'lmagan.


Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot zaxirasi bo'yicha 77 foiz respondentlarda normal darajada, 9 foizida yuqori darajada hamda 14 foizida past darajada shakllanganligi bildirilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun xarid qilingan xomashyo materiallari zaxirasi yuqori, normal hamda past darajada shakllangan korxonalar nisbati mos ravishda 6%, 80% va 14% ni tashkil qilgan.

Eksport mahsulotlariga talab darajasi iyun oyi holatiga ishtirok etgan sanoat korxonalarning 72 foizida normal darajada, 5 foiz korxonada yuqori darajada hamda 23 foiz korxonada past darajada shakllangan.

So'rovnomada ishtirok etgan sanoat korxonalari ishlab chiqarish hajmining oshishiga to'siq bo'layotgan asosiy omillar sifatida **talabning past darajada ekanligi** hamda **yetarli darajada aylanma mablag'larning mavjud emasligini** ko'rsatgan. Bundan tashqari sanoat korxonalarining 12 foizi **import tovarlarining ko'pligini**, 11,6 foizi **elektr-energiyasi bilan bog'liq muammolarni** hamda 7,3 foizi **tabiiy gaz bo'yicha muammolarni** ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga salbiy ta'sir etayotgan asosiy muammolar ekanligini ko'rsatib o'tgan.

2-rasm

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish hajmining oshishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, foizda



Sanoat korxonalarining kelgusi 3 oy uchun iqtisodiy kutilmalari iyun oyi yakuni holati bo'yicha nisbatan ijobiy shakllangan. So'rovnomada ishtirok etgan korxonalarning 48 foizi **kelgusi 3 oyda ishlab chiqarish hajmining oshishini** kutayotgan bo'lsa, 44 foizi o'zgarmasligini hamda 8 foizi kamayishi bo'yicha prognozlarini ko'rsatgan.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi bo'yicha kutilmalarga mos ravishda **ish o'rinlari sonini o'zgarishi** bo'yicha ham korxonalarda ijobiy kutilmalar mavjud. Xususan, korxonalarning 35 foizi kelgusi 3 oyda o'zidagi ish o'rinlari oshishini prognoz qilayotgan bo'lsa, 56 foizi o'zgarmasligini hamda 9 foizi kamayishini kutayotganini ko'rsatib o'tgan.

Qurilish sohasi

So'rovnomada qurilish sohasida faoliyat yuritadigan **91** ta korxona ishtirok etdi. Bunda so'rovnomada ishtirok etadigan tadbirkorlik subyektlari korxonalarning geografiyasidan kelib chiqqan holda hududlar kesimida tanlab olindi.

Qurilish korxonalarining **bajargan qurilish ishlari hajmi** iyun oyi holatida may oyiga nisbatan so'rovnomada ishtirok etgan qurilish korxonalarining 56 foizida oshgan bo'lsa, 32 foizida o'zgarmagan va qolgan 12 foizida esa kamaygan.


Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida so'rovnomada ishtirok etgan qurilish korxonalarining 46 foizida qurilish ishlari hajmi oshgan, 11 foizida kamaygan hamda 44 foizida o'zgarmagan.

So'rovnoma natijalaridan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari may oyiga nisbatan iyun oyida sezilarli oshganini ko'rish mumkin. **Aholi uchun uy-joylar qurilishi** yo'nalishida so'rovnomada ishtirok etgan korxonalarning 45,1 foizi oshganligini ko'rsatgan bo'lsa, **Tadbirkorlik uchun bino va inshootlar qurilishi** yo'nalishida 36,3 foiz hamda **Infrastruktura obyektlari qurilishi** yo'nalishida 50,5 foiz korxonalar qurilish ishlari ko'payganligini ko'rsatgan.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davridagi so'rovnoma natijalariga ko'ra, qurilish ishlarini oshganligini ko'rsatgan korxonalar ulushi aholi uchun uy-joy qurilishi yo'nalishida 46 foizni, tadbirkorlik uchun bino va inshootlar qurilishi yo'nalishida 36 foizni hamda infrastruktura obyektlari qurilish yo'nalishida 35 foizni tashkil qilgan.

3-rasm

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarini bajarilishi holati, foizda



Qurilish sohasida **ish o'rinlari** soni bo'yicha so'rovnomada ishtirok etgan korxonalarning 46 foizi oshganligini ko'rsatgan bo'lsa, 45 foiz korxonada o'zgarmagan hamda 9 foiz korxonada kamaygan. Shuningdek, mazkur korxonalarning 46 foizi **oylik ish haqini** oshganligini, 45 foizi o'zgarmaganligini hamda 9 foizi kamayganligini belgilagan.

Ish haqi miqdori oshdi deb ko'rsatgan korxonalarning 35 foizida ish haqi 11-15% oraliqda, 32 foizida 6-10% oraliqda hamda 29 foizida 1-5% oraliqda ish haqi oshgan bo'lsa, ish haqi kamayganini ko'rsatgan korxonalarning yarmida ish haqi 11-15% foizga, qolgan yarmida 6-10% oraliqda kamaygan.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida ish o'rinlari soni hamda o'rtacha oylik ish haqi darajasini oshganligi, kamayganligi hamda o'zgarmaganligini ko'rsatgan korxonalar ulushi mos ravishda 33%, 7% va 60% ni tashqil qilgan.

Ta'minotchi tomonidan **xomashyo yetkazib berish muddatlari** 50 foiz qurilish korxonasida yaxshilangan bo'lsa, 41 foizida o'zgarmagan hamda 9 foiz korxonada yomonlashgan.

Qurilish materiallari narxlari bo'yicha so'rovnomada ishtirok etgan 44 foiz korxona oshganini, 48 foizi o'zgarmaganligini hamda 8 foiz korxona tushganligini ko'rsatgan. Bunda narxlar oshganini ko'rsatgan korxonalarning yarmidan ortig'i (56%) narxlarning 6-10% orliqda oshganligini ko'rsatgan bo'lsa, 31 foizi 1-5% oraliqda hamda 10 foizi 11-15% orliqda oshganligini ko'rsatgan.


Narxlar pasayganini ko'rsatgan tadbirkorlik subyektlarining 29 foizi narxlarining 1-5% orliqda, 29 foizi 6-10% orliqda hamda qolgan qismi narxlarni 10% dan baland tushgan deb hisoblagan.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida qurilish materiallari narxlari oshdi deb hisoblagan tadbirkorlik subyektlarining ulushi 38 foizni, pasayganini bildirganlarning ulushi 1 foizni hamda o'zgarish sezmaganlarining ulushi 61 foizni tashkil qilgan. Xomashyo yetkazib berish muddatlari esa 44 foiz tadbirkorlik subyektlarida yaxshilangan, 5 foizida yomonlashgan hamda 52 foizida o'zgarmagan.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, qurilish korxonalarining **moliyaviy holati** yaxshi ekanligini xulosa qilish mumkin. Mazkur so'rovnomada ishtirok etgan qurilish korxonalarning 53 foizi o'zidagi moliyaviy holat yaxshi ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, 40 foizi qoniqarli ekanligini hamda 8 foizi yomonligini ko'rsatgan. Shuningdek mazkur korxonlarning 51 foizida **aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi** yaxshi bo'lsa, 41 foizida qoniqarli hamda 8 foizida yomon holatdaligi ko'rsatilgan.

4-rasm

Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ishlar hajmining oshishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, foizda



Qurilish ishlariga **talab darajasi** 69 foiz qurilish korxonalarida normal darajada, 18 foizida yuqori hamda 13 foizida past darajada shakllangan.

Faoliyatini kengaytirishga to'siq bo'layotgan asosiy omillar bo'yicha so'rovnomada ishtirok etgan qurilish korxonalaridan 19,8 foizi to'siq bo'layotgan asosiy omil sifatida **elektr-energiya bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni** ko'rsatgan bo'lsa, 18,7 foizi **aylanma mablag'larning yetarli emasligini** ko'rsatgan.

Shuningdek qurilish faoliyatining kengayishiga salbiy ta'sir qilayotgan omillar qatoriga 16,5 foiz korxona xomashyo bilan bog'liq muammolarni, 14,3 foizi tabiiy gaz bilan bog'liq masalalarni, 13,2 foizi talabning pastligini hamda qolgan qismi asbob-uskunalar yetishmasligini ko'rsatib o'tgan.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, qurilish korxonalarning iqtisodiy kutilmalari ijobiy shakllanayotganligini kuzatish mumkin. So'rovnomada ishtirok etgan qurilish korxonalarining 60 foizi **kelgusi 3 oyda qurilish ishlari hajmini** oshishini kutayotgan bo'lsa, 30 foizida o'zgarmasligi hamda 10 foizida kamayishi bo'yicha kutilmalar mavjud.

Shuningdek, mazkur korxonalarning **kelgusi 3 oyda ish o'rinlari soni** oshishi bo'yicha ham ijobiy kutilmalar mavjud. Ya'ni so'rovnomada ishtirok etgan qurilish korxonalarining 51 foizi ish o'rinlarini oshishi bo'yicha, 41 foizida o'zgarmasligi hamda 9 foizida kamayishi bo'yicha kutilmalar shakllangan.


Xizmatlar sohasi

So'rovnomada xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan respublikaning barcha hududlaridan korxonalarning geografik joylashuviga ko'ra tanlab olingan **164** ta korxona ishtirok etdi. Ishtirok etgan korxonalarning 20,1 foizi **transport xizmatlarini** ko'rsatuvchi, 15,9 foizi **umumiy ovqatlanish** tarmog'ida faoliyat yurituvchi, 15,2 foizi **mehmonxona va turizm** xizmatlari, 15,2 foizi **tibbiyot xizmatlari**, 4,3 foizi **ta'lim xizmatlari** hamda 4,9 foizi **axborot va aloqa xizmatlarini** ko'rsatuvchi subyektlar hisoblanadi.

So'rovnomada ishtirok etgan xizmat ko'rsatish korxonalarining 46 foizi so'nggi oyda korxonasi tomonidan **ko'rsatilgan xizmatlar hajmi** oshganligini, 11 foizi kamayganligini hamda 43 foizi o'zgarmaganligini ma'lum qildi. Shu bilan birga, so'nggi oyda korxona **xizmatlariga bo'lgan talabning** oshganligini, kamayganligini va o'zgarmaganligini qayd etgan respondentlarning ulushi mos ravishda 42, 13 va 45 foizlarni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2024 yilning mos davrida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshganligini bildirgan respondentlar ulushi 34 foizga, kamayganligini – 12 foizga hamda o'zgarmaganligini – 55 foizga teng bo'ldi.

So'rovnomada ishtirok etgan korxonalarning xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Xizmat ko'rsatish korxonalarining asosiy qismida – 64 foizida so'nggi oyda **ishchilar soni** o'zgarmagan, 27 foizida oshgan bo'lsa, 9 foizida kamaygan. O'z navbatida, **o'rtacha oylik ish haqining** o'tgan oyga nisbatan oshganligini 28 foiz korxonalar bildirgan bo'lsa, 4 foiz korxonalar kamayganligini ma'lum qildi. Qolgan 68 foiz respondentlar oylik ish haqining o'zgarmaganligini qayd etdi. Korxonalar ma'lum qilgan ish haqining o'zgarishi oralig'idan kelib chiqib amalga oshirilgan hisob-kitoblar 2025 yil iyun oyida ish haqi o'rtacha 1,8% ga oshganligini ko'rsatdi.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida xizmat ko'rsatish korxonalarida ish haqining o'rtacha o'sishi 1,3% ni tashkil etdi.

Har 4 ta korxonadan 1 tasi (25 foizi) korxona tomonidan ko'rsatilayotgan **xizmatlar narxini** o'tgan oyga nisbatan oshganini, har 20 tadan 1 tasi (5 foizi) esa pasayganini ta'kidladi. Qolgan 70 foiz xizmat ko'rsatish korxonalarida narxlar o'zgarmaganligi ma'lum bo'ldi. Hisob-kitoblar ko'ra, xizmatlar narxining o'rtacha o'sishi 1,3% ga teng bo'ldi.


Xizmat ko'rsatish korxonalaridan joriy **moliyaviy holatini** baholash so'ralganda, "yaxshi" deb belgilagan korxonalar ulushi 55 foizni, "qoniqarli" – 41 foizni hamda "yomon" – 4 foizni tashkil etdi. Shuningdek, korxonaning **aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik holatini** respondentlarning 48 foizi yaxshi, 46 foizi qoniqarli va qolgan 6 foizi yomon deb baholadi.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida moliyaviy holatini "yaxshi" deb baholagan korxonalar ulushi 46 foizni, "qoniqarli" – 48 foizni hamda "yomon" – 6 foizni tashkil etgan edi.

Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini kengaytirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida **malakali mutaxassislarning yetishmasligi** (*so'rovnomada ishtirok etganlarning 16,5 foizi*), **elektr energiya** (*14,6 foiz*) va **tabiiy gaz** (*14 foiz*) bilan bog'liq muammolarni ta'kidladi.

6-rasm

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, foizda



Shuningdek **talabning yetarli darajada emasligi** (*11 foiz*), **aylanma mablag'larning yetarli emasligi** (*9,1 foiz*) hamda **texnik asbob-uskunalaridagi yetishmovchiliklar** (*6,7 foiz*) xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini kengaytirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani bildirildi.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish korxonalarining **kelgusi 3 oydagi korxona faoliyatiga oid kutilmalari** o'rganildi. Xususan, ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshishi, kamayishi va o'zgarmasligini prognoz qilgan tadbirkorlik subyektlari ulushi mos ravishda 54, 7 va 39 foizlarni tashkil etdi. Shuningdek, 51 foiz korxonalar **kelgusi 3 oyda korxona xizmatlariga talab** oshadi deb hisoblasa, 5 foiz korxonalar kamayishini ta'kidladi. Qolgan 44 foiz korxonalar xizmatlarga talab o'zgarmasligini kutmoqda. Bundan tashqari, 43 foiz respondentlar **kelgusi 3 oyda ishchilar sonini** oshirmoqchiligini, 6 foiz – kamaytirmoqchiligini hamda 51 foiz – o'zgarmasligini ma'lum qildi.


Savdo tarmog'i

2025 yil iyun oyida o'tkazilgan so'rovnomada savdo sohasida faoliyat yurituvchi 134 ta tadbirkorlik subyektlari ishtirok etgan bo'lib, shundan 47,8 foizi chakana savdo, 52,2 foizi ulgurji savdo korxonalari hisoblanadi.


So'rovnomada ishtirok etgan korxonlarning asosiy qismi (*jamiga nisbatan 36,6 foiz*) **oziq-ovqat** savdosi hamda **dori vositalari** savdosi (*14,9 foiz*) bilan shug'ullanadi. Shuningdek, **qurilish materiallari** savdosi (*9 foiz*), **xo'jalik mollari** savdosi (*3,7 foiz*), **maishiy texnika** savdosi (*3 foiz*) hamda **kiyim-kechak** savdosi (*0,7 foiz*) bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari ham ishtirok etgan.

7-rasm

So'rovnomada ishtirok etgan savdo sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarning asosiy yo'nalishlari, foizda



So'rovnomada ishtirok etgan korxonalarning savdo tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



So'rovnomada ishtirok etgan savdo korxonalarining 48 foizida so'nggi oyda sotuvlar hajmi oshgani, 16 foizida kamaygani va qolgan 36 foizida o'zgarmagani qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024 yilning iyun oyida savdo hajmi oshgan, kamaygan va o'zgarmagan deb hisoblovchi savdo korxonalari ulushi mos ravishda 27, 17 va 56 foizlarni tashkil etdi.

Shuningdek, deyarli 30 foiz respondentlar so'nggi oyda ham **ish o'rinlari sonini** oshganligini ham **o'rtacha oylik ish haqining** miqdori oshganligini ma'lum qilgan bo'lsa, 2 foiz respondentlar kamayganligini bildirdi. Qolgan 68 foiz tadbirkorlik subyektlarida ish o'rinlari soni va o'rtacha oylik ish haqi o'zgarmaganligi qayd etildi. Mazkur davrda oylik ish haqining o'rtacha o'sishi 2,6% ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: o'tgan yilning mos davrida savdo korxonalarida oylik ish haqining o'rtacha o'sishi 0,7 foizni tashkil etdi.


So'rovnomada ishtirok etgan savdo korxonalarining 51 foizi ularga **yetkazib berilayotgan tovarlarning ulgurji narxlari** o'tgan oyga nisbatan oshganligini, 5 foizi esa pasayganligini ma'lum qildi. Qolgan 44 foiz ishtirokchilar yetkazib berilayotgan tovarlarning ulgurji narxlari o'zgarmagan deb hisoblaydi. Respondentlar ma'lum qilgan **narxlar o'zgarishi** oralig'idan kelib chiqib amalga oshirilgan hisob-kitoblar ularga yetkazib berilayotgan tovarlarning ulgurji narxlari o'rtacha 3,2% ga oshganligini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, **mavjud tovarlar zaxirasining** joriy holati normal darajada bo'lgan savdo korxonalari ulushi 89 foizni tashkil etdi. Normal darajadan yuqori deb baholagan korxonalar ulushi 7 foiz bo'lsa, normal darajadan past deb hisoblagan savdo korxonalari ulushi 4 foizga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2024 yilning mos davrida mavjud tovarlar zaxirasini normal darajada deb hisoblagan savdo korxonalari ulushi 75 foizga teng bo'lgan bo'lsa, normal darajadan yuqori deb hisoblaganlar ulushi 9 foizga teng bo'ldi. Qolgan 16 foiz korxonalar joriy tovarlar zaxirasi normal darajadan past deb hisoblashini bildirdi.

8-rasm

Savdo hajmining oshishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, foizda



Savdo korxonalari savdo hajmining oshishiga salbiy ta'sir qilayotgan asosiy omillar sifatida **aylanma mablag'larining tanqisligi** (*jamiga nisbatan 26,9 foiz*), **yeterli darajada talab mavjud emasligi** (*17,2 foiz*) hamda **tayyor mahsulot ta'minotidagi muammolar** (*7,5 foiz*) kabilarni ko'rsatgan.

Bundan tashqari, so'rovnomada ishtirok etgan savdo korxonalarining 58 foizi **kelgusi 3 oyda sotuv hajmi** oshadi deb hisoblasa, 8 foizi savdo hajmlari kamayishini prognoz qilmoqda. Qolgan 33,6 foiz respondentlar mahsulotlar sotuv hajmida o'zgarish bo'lmasligini kutmoqda. Shuningdek, **kelgusi 3 oyda korxonada ish o'rinlari soni** oshishini, kamayishini va o'zgarmasligini ta'kidlagan savdo korxonalari ulushi mos ravishda 39, 2 va 59 foizlarni tashkil etdi.

Iqtisodiy faollik va ishbilarmonlik kayfiyati indeksi

So'rovnoma natijalari umumlashtirilib, hisob-kitoblar asosida iqtisodiyotdagi joriy holatni ko'rsatuvchi **Iqtisodiy faollik indeksi (IFI)** hamda iqtisodiy kutilmalarni ko'rsatuvchi **Ishbilarmonlik kayfiyati indeksi (IKI)** shakllantiriladi. Ushbu indekslarning uzoq muddatlik dinamikasi IFI va IKI 2025 yilning iyun oyida 2024 yilning iyun oyiga nisbatan sezilarli yaxshilanganini ko'rsatmoqda. Xususan, IFI 3,6 birlikka o'sib, 63,9 ni tashkil etgan bo'lsa, IKI 5 birlikka yaxshilanib, 59,5 ga yetdi.

9-rasm

Iqtisodiy faollik va ishbilarmonlik kayfiyati indekslari dinamikasi

